

Turkman tili

Vikipediya, ochiq ensiklopediya

Turkman tili — turkiy tillardan biri. Asosan, Turkmanistonda, shuningdek, Oʻzbekiston, Tojikiston, Qozogʻiston respublikalarining ayrim tumanlarida, Rossiya Federatsiyasining Stavropol oʻlkasida, Afgʻoniston, Turkiya, Eron va boshqa mamlakatlarda tarqalgan. Turkmanistonning rasmiy tili. Utgan asr oxirlarida soʻzlashuvchilarning umumiy soni 4,8 mln. (jumladan, Turkmanistonda 2,5 mln.dan ortiq, Oʻzbekistonda 130 ming, Afgʻonistonda 400 ming, Eronda 300 mingga yaqin) kishidan iborat boʻlgan. Asosiy laxjalari: taka, yovmut, ersari, goʻklan, sariq, salir, chovdur va boshqa Stavropoldagi Turkman tili lahjasi truxmen tili deb ataladi.

Turkman tili gʻarbiy oʻgʻuz kabila (urugʻ) tillari negizida shakllangan, lekin rivojlanish jarayonida qipchoq guruhidagi turkiy tillarga xos xususiyatlarga ham ega boʻlgan. Turkman tilining asosiy oʻziga xos belgilari: birlamchi (qad.) choʻziq unlilarning mavjudligi, tishlararo talaffuz qilinadigan s vaz undoshlarining (boshqa turkiy tillardagi odatiy s va 3 oʻrniga) mavjudligi, lab undoshlari garmoniyasining rivojlanganligi; kelasi zamon gumon feʻli inkor shaklining r tugallanmali variantining (boshqa turkiy tillar uchun umumiy boʻlgan maye shakli bilan birga) qoʻllanishi va boshqa Leksikasida arab, fors, rus tillaridan oʻzlashgan soʻzlar uchraydi.

Eski adabiy Turkman tili, asosan, sheʼriyat tili hisoblangan. Hozirgi adabiy Turkman tili esa 20-asrning 20-yillaridan turkman lahjalarining taka lahjasi negizida birlashuvi natijasida shakllangan. 1928 yilgacha arab, 1929—40 yillarda lotin, 1940— 90-yillarda rus grafikasiga asoslangan yozuvdan foydalanilgan. 1991 yildan yana lotin fafikasi asosidagi yozuv joriy etildi.

Turkman tili' (Lotin alifbosida: türkmen dili, Kriill alifbosida: Түркмен дили, ISO 639-1: tk, ISO 639-2: tuk) — Turkmanistonning milliy tili. Bu tilda Turkmanistonning oʻzida taxminan 3430000 kishi gapiradi. Turkman tilida gaplashadiganlarni quyidagi jadvaldan koʻrishingiz mumkin:

Turkman tili	
Milliy nomi	Türkmençe, Türkmen dili, Түркменче, Түркмен дили, تورکمن تیلی, تورکمنچه
Mamlakatlar	 Turkmaniston  Eron  Afgʻoniston  Turkiya  Rossiya
Rasmiylik holati	 Turkmaniston
Soʻzlashuvchilarning umumiy soni	6 563 000 ^[1]
Turkumlanishi	
Turkum	<u>Yevroosiyo tillari</u>
Til oilasi	<u>Oltoy tillari</u>
	<u>Turkiy tarmoq</u>
	<u>Oʻgʻuz guruhi</u>
Alifbosi	lotin, kirill, arab
Til kodlari	
ISO 639-1	tk
ISO 639-2	tuk
ISO 639-3	tuk

asoslangan yozuvdan foydalanilgan. 1991 yildan yana lotin fafikasi asosidagi yozuv joriy etildi.

Jahonda turkman tilida gaplashadiganlar soni

Hudud	Soni	Axborotning yillari
<u>Turkmaniston</u>	3 430 000 ^[1]	1995
<u>Eron</u>	2 000 000 ^[1]	1997
<u>Afg'oniston</u>	500 000 ^[1]	1995
<u>O'zbekiston</u>	152 137 ^[1]	2000
<u>Turkiya</u>	920	1982 ^[1]
<u>Tojikiston</u>	taxminan 90 ming kishi	
<u>Qozog'iston</u>	taxminan 90 ming kishi	
<u>Rossiya</u>	taxminan 90 ming kishi	

Klassifikatsiyasi va dialektlari

— turkman xalqining tili. turkman tilida gaplashuvchilarning umumiy soni 7 million atrofida (2001), ular Turkmaniston Respublikasidan bo'lak O'zbekiston, Eron, Iroq, Rossiya, v.h. davlarida istiqomat qilishadi. Turkiy tillari guruxining o'g'uz guruxiga mansub. Turkman tili rivojlanishida qipchoq tillarining ta'siri bo'lgan. Turkman tili o'g'uzlarning g'arbiy qabila tillari asosida shakllangan. Asosiy dialektlari teke, yomud, goklen, ersari, salir, sariq, chaudor, noxur, qaradashli, alili, surxi, xatap, mukri, eski, arabachi, cheches, bayat, sakr, kirach, chandir, xasar, emreli, duechi, murche, mexinli, v.h. kiridigan guruxlarning nomi bilan ataladi. Stavropol o'lkasidagi turkman dialektini „truxmen“ deb atash milliy shakllangan. Qadimgi turkman adabiy tili asosan poeziya tili bo'ldi. Hozirgi turkman adabiy tili tekin (teke) dialektining axial so'zi asosida shakllangan. Turkman tilidagi 39 fonemaning 18-ta jarangli, 21-ta jarangsiz harflar. Qadimdan turkman tilida arab alifbosiga asoslangan harflarni foydalanib kelishgan. 1928 yili lotin alifbosini qabullagan, 1940 yili kirill alifbosiga almashtirgan. 1994 yili qaytadan lotin alifbosiga almashdi. Turkman tili turkiy tillari guruxining o'g'uz tarmog'iga, shuning ichidagi sharqiy o'g'uz tarmog'iga kiradi. U boshqa o'g'uz tillari — ozarboyjon va turk tillariga ham o'ta yaqin va shu tillarda so'zlashuvchilar bir-birining tillarini tushunadi.

Misollar

Onuň maşyny ýok.

Uning mashinasi yo'q.

Öýde Amandan başga adam ýok.

Uyda Omondan boshqa kishi yo'q.

Men bilemok. 'Men bilmayman.'

Men bilemokdym. 'Men bilmaydigan edim.'

Men bilmedim. 'Men bilmadim.'

Ol aç däl.

U och emas.

Kofe gyzgyn bolup biler.

Qaxva issiq bo'lishi mumkin.

Kofe gyzgyn däl bolup biler.
Qaxva issiq bo'lmashi mumkin.

Kofe gyzgyn dälmi?
Qaxva issiq emasmi?

Men ylgamok.
Men yugurmayman.

Men ylgamadym.
Men yugurmadim.

Men ylgajak däl.
Men yugurmoqchi emasman.

Manbalar

1. Ethnologue: Languages of the World, Sixteenth edition. Dallas, Tex.: SIL International. Online: Report for language code: tuk (http://www.ethnologue.com/show_language.asp?code=tuk)

К·М·Т (https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Andoz:Turkiy_tillar&action=edit)

Qiya yozuvda o'lik tillar

Bulg'or *Bulg'or* · *Chuvash* · *Xun* · *Xazar* · *Turkiy Avar*

Qarluq *Qadimgi Turkiy* · *Ayni*¹ · *Xorazmiycha turkiy* · *Chig'atoy* · *Ili Turki* · *Lop* · *Uyg'ur* · *O'zbek*
Oltoy · *Baraba* · *Boshqird* · *Qirim tatar*² · *Kuman* · *Fergana Kipchak* · *Qorachoy-Bolqor* ·

Qipchoq *Qaraim* · *Qoraqalpoq* · *Qozoq* · *Qipchoq* · *Qirimchaq* · *Qo'miq* · *Qirg'iz* · *No'g'oy* · *Eski Tatar* ·
Tatar · *Urum*²

O'g'uz *Afshar* · *Ozərbayjon* · *Crimean Tatar* · *Gagauz* · *Balkan Gagauz Turkish* · *Xuroson-turkiy* ·
Old Anatolian Turkish · *Usmonli turk* · *Pecheneg*³ · **Qashqay** · *Salar* · *Turk* · *Turkman* · *Urum*

Arg'u *Xalaj*

Uyg'ur *Chulim* · *Dolgan* · *Fuyü Gırgıs* · *Xakas* · *Shor* · *Tofa* · *Tuva* · *G'arbiy Uyg'ur* · *Saxa/Yoqut*

¹ Aralashgan (qo'shma) til. ² Shuningdek O'g'uz. ³ Munozarali



*Ushbu maqolada O'zbekiston milliy
ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlaridan
foydalanilgan.*

"https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Turkman_tili&oldid=2077786" dan olindi

Bu sahifa oxirgi marta 10-Fevral 2020, 14:47 da tahrir qilingan.

Matn [Creative Commons Attribution-ShareAlike litsenziyasi](#) bo' yicha ommalashtirilmoqda, alohida holatlarda qo' shimcha shartlar amal qilishi mumkin ([batafsil](#)).